

DUNYO TILLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA O‘ZBEK TILINING TARAQQIYOTI: MUAMMOLAR VA YECHIM

Pirimova Mohichehra Urol qizi

Samarqand viloyati Jomboy tumani

26-umumiy o‘rta ta’lim maktabining

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo tillarining rivojlanish jarayoni, o‘zbek tilining rivojlanishi, hozirgi holati va uning taraqqiyot yo‘nalishlari bu tilidan foydalanishda uchraydigan asosiy xatolar, ularning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Xatolar asosan imlo, grammatik, uslubiy va talaffuz jihatlarida kuzatilib, sheva va chet tillarning ta’siri hamda rasmiy yozishmalarda o‘zbek tilining me’yorlariga rioya qillinmaslik sabablari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *dunyo tillari, til rivoji, globallashuv, til siyosati, ko‘p tillilik, o‘zbek tili, lingvistik xatolar, imlo va grammatika, sheva va adabiy til.*

Abstract: *This article analyzes the development of world languages, the development of the Uzbek language, its current state and directions of development, the main errors in the use of this language, the causes of their occurrence and ways to eliminate them. Errors are mainly observed in spelling, grammar, stylistic and pronunciation aspects, and the influence of dialects and foreign languages, as well as the reasons for non-compliance with the norms of the Uzbek language in official correspondence, are considered.*

Keywords: *world languages, language development, globalization, language policy, multilingualism, Uzbek language, linguistic errors, spelling and grammar, dialect and literary language.*

Til nima va u nima uchun kerak va unga davlat maqomini berish qanchalik zarur? Til - ma’lum bir jamiyat a’zolari tushunadigan va shu til orqali muloqot qilib, axborot almashish vazifasini bajaradigan, jonli vosita hisoblanadi. Til orqali millat o‘zi qay darajada ekanligini bilishi mumkin. Davlat tili nomini berish esa davlatchilik nuqtayi nazaridan: har bir mustaqil davlat ma’lum bir tilni o‘z ona tili sifatida tan oladi va bu orqali xalq vakillari o‘rtasida, jamiyatda, ommaviy axborot vositalarida bir-birini to‘liq tushunishni ta’minlaydi.

O‘zbek alifbosi 1928-yilga qadar Arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek tili va yozuvida bo‘lgan. Shu yildan 1940-yilgacha lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvi joriy etildi. Rossiya yurtimizdagi amirlik va xonliklarni bosib olgandan

so‘ng o‘z siyosatini o‘rnatdi va krill yozuvidagi o‘zbek alifbosidan foydalanishga o‘tildi. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Tilimiz qadimdan mavjud bo‘lib, davrlar o‘tgani sayin o‘zgarib, rivojlanib borgan. O‘zbek tilini davlashtirish borasida quyidagilarga ajratishimiz mumkin.

- qadimgi turkiy til (miloddan avvalgi davdan X asrgacha);
- eski turkiy til (XI-XII asrlar);
- eski o‘zbek tili (XII-XIII asrlardan XX asr boshlarigacha);
- hozirgi o‘zbek tili (XX asr boshlaridan bugungi kungacha).

Dunyoda ko‘plab tillar mavjud bo‘lib, ularning ba‘zilaridan kam sonli kishilar, ba‘zilaridan esa keng qatlamli omma foylanadi. Bugungi kunda eng ko‘p kishilar tomonidan foydalanuvchi tillar va tilning ichki imkoniyatlari jihatidan boy tillar mavjud.

1. Arab tili – bu tillarning badavlat ekaniga sabab, bu tilning grammatik xususiyatlari va ko‘pchilik tomonidan faol qo‘llanilishidir. Qolaversa, tilning ushbu maqomga yetishida dinning ta’siri ham yuqori; birinchidan dunyoning 24,9 foizi ya’ni 1,8 milliarddan ko‘p kishilar islom diniga e’tiqod qiladi. Ikkinchidan, ularning 18 foizi arab davlatlarida yashaydi, qolgan qismi esa dunyoning turli mintaqalarida istiqomat qilishadi. Shu sababli ha u keng miqyosda yoyilgan. To‘g‘ri ular hammasi arab tilini bilmaydi, lekin islom dinining muqaddas kitobi “Qur’on” ni o‘qishni xohlovchi kishilarning ko‘pligi bu tilni o‘rganishga turtki bo‘ladi.

2. Ingliz tili – bu jahon tillaridan biri hisoblanib, juda ko‘pchilik mamalakatlardan asosiy til va ikkinchi til hamda o‘rganilishi zarur hisoblangan tillardan biridir. Birinchidan, Amerika Qo‘shma Shtatlari jahonda hududi (9833520 km.kv.) va aholisining ko‘pligi (341 million) jihatidan oladigan bo‘lsak, asosiy til sifatidan foydalaniladi. Ikkinchidan, Yevropa davlatlarida xususan, Buyuk Britaniya va unga kiruvchi davlatlar, Avstraliya, Kanada, Hindiston va boshqa mamlakatlarda ham asosiy til sifatida foylanishi, tilning ommaviylik darajasini oshiradi. Uchinchidan, ingliz tili ko‘plab davlatlarda ikkinchi til yoki xalqaro tadbirlarda ham ko‘pchilik tushunadigan til, shuningdek, qo‘shimcha til sifatida ham nufuzi balanddir. Bunga sabab, xalqaro universitetlarda qabul uchun turli xalqaro ingliz tili sertifikatlarining talab qilinishi bo‘lsa; boshqa tomondan, davlatlar o‘z reytingini oshirishda ingliz tilidan foydalanayotganidir. Hozirda xavfsizligi ta’minlangan va jahon tili darajasiga ko‘tarilgan tillar: ingliz, arab, rus, xitoy, nemis, fransuz, yapon va ispan tillaridir.

Ba’zi statistik ma’lumotlarga ko‘ra o‘zbek tilida muloqot qiluvchi kishilarning davlatlararo ko‘rsatgichi:

O‘zbekistonda 24 millionga yaqin, Afg‘onistonda – 3 million, Tojikistonda - taxminan 1 million, Qozog‘istonda – 500000, Turkmanistonda – 350000ga yaqin, Rossiyada – 300000 kishi.

O‘zbekiston suveren-demokratik mamlakatlar qatorida ekan, uning o‘z davlat ramzlari o‘z mentaliteti, ona tili, madaniyati hamda qadriyatlari mavjud. Bularni chet elliklarga yoyishning eng samarali yo‘li birinchidan, o‘z tili, ikkinchidan kishilar o‘zlarining xulq-atvorlari orqali amalga oshiradilar. Qaysi holatda bo‘lmasin, kishilar o‘z so‘zlari va gaplari bilan notanish odamga aslida kim va qanday ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni kimdir o‘zga tillardan birortasini bilib shu orqali boshqalar bilan muloqot qilar ekan, u jarayonda yurti va uning insonlari, turmush tarzi, madaniy-ma’naviy va ijtimoiy-maishiy vaziyat hamda holatlar haqida xohlasa-xohlamasa aytib qo‘yadi. Shunday ekan, biz o‘zbek tilini boshqalarga o‘rgatish orqali ham tilimizni ham madaniyatimizni tarqatishimiz mumkin. Buni amalga oshirish uchun yurtimizda yaxshigina imkoniyatlar bor. Xususan, hozirgi kunda turli chet el fuqarolarining O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishlari uchun keng imkoniyatlar ochilgan. Qolaversa, ko‘plab xorijiy elchilari va mas’ul lavozimdagi xodimlar, professor-o‘qituvchilar, investrlar, biznes qatlam vakillari, qo‘shma korxonalarning chet ellik ishchi-mutaxassislar, va volontyorlar uchun o‘zbek tilini bilish muhimdir. Negaki ularning faoliyati yurtimiz hududida muntazam istiqomat qilib, ishlashlarini taqozo qiladi. Shu sababdan ham ular muloqot va aloqa almashishlari uchun o‘zbek tilini o‘rganishi zarur.

O‘zbek tilining grammatik tuzilishida: fonetik, leksik, semantik, morfemik, morfologik, sintaktik, stilistik, orfoepik, orfografik va boshqa bo‘limlarda so‘zlarning ishlatilishi, o‘rni, talaffuzi, imlosi kabi o‘rganilish obyektlari mavjud. O‘zbek tilda yozma va og‘zaki nutqdan foydalanishda yuqoridagi qoidalarga amal qilmagan holda, juda ko‘p biz ilg‘agan yoki ilg‘amagan jiddiy xatolar uchramoqda. Bunga shevalashgan so‘zlarni ishlatish, savodxonligimizning yetarli darajada emasligi, tilimizga bo‘lgan hurmatning pastligi va o‘zga tillarga oid so‘zlardan nutq davomida ko‘p foydalanish sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda o‘zbek tilidan foydalanishda fonetik, morfologik, sistaktik xatolar uchramoqda. Fonetik xatolar - bu so‘zlarning talaffuzida tovushlar bilan yuzaga keladigan xatolardir. Ular tildan foydalanuvchi va o‘rganuvchilar uchun umumiy muammo hisoblanadi. Masalan, so‘zlashuv uslubidagi so‘zlar va o‘rganilayotgan biror-bir til hamda yozma adabiy nutq o‘rtasidagi farqlar fonetik xatolarni keltirib chiqarishi tabiiy holdir. Xususan, o‘zbek tilida urg‘u, intonatsiya

va ayrim harflarning talaffuzida xatolar kuzatilishi mumkin. Talaffuzda qisqa unli qo‘shib, lekin yozuvda ifoda etilmaydigan so‘zlarda uchratamiz. (sinf – sinif yoki snif, fikr – fikir, ilm – ilim, aql - aqil kabi.) Qardosh tillardan kirib kelgan so‘zlarda tovushlarning noto‘g‘ri aytilishi ham keng tarqalgan. Bunday xatolarni bartaraf etish uchun talaffuz mashqlariga e‘tibor qaratish muhimdir. O‘rganuvchilar talaffuz texnikalarini o‘rganib, audio materiallardan foydalangan holda o‘z ko‘nikmalarini oshirishlari mumkin.

Morfologik xatolar odatda so‘zlarning noto‘g‘ri shakllarini ishlatishdan kelib chiqadi. Bunday ko‘rinishdagi xatolar asosan yozma nutqda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, bo‘g‘iz undoshi h va chuqur til orqa undoshi x tovushlari ishtirok etgan so‘zlarda (huquq yoki xuquq, hamma yoki xamma, hayvon yoki xayvon), til oldi t va d (tatbiq yoki tadbiq, tadqiqot yoki tatqiqot), qo‘sh unlidan tashkil topgan so‘zlarda (manfaat yoki manfat, inshoot yoki inshoat, mudofaa yoki mudofa), paronimlarni ishlatish bo‘yicha gap mazmuni uchun mos so‘zni tanlash uchun asir-asr, sher-she‘r, amr-amir, hol-xol, afzal-abzal kabi. Qolaversa, shu shakldagi xatolar so‘zlarga egalik va kelishik qo‘shimchalarini qo‘shishganda fonetik o‘zgarishlar: tovush tushishi, tovush almashinishi va tovush ortishi tufayli yuzaga keladi. Bunday xatolarning oldini olish uchun imlo qoidalarini va tildagi qoidalarni yaxshi bilish muhimdir. Statistika ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, yozma matnlarda morfologik xatolar umumiy xatolarning 15-20 foizini tashkil etadi. Bu xatolarni bartaraf etish bo‘yicha izchil islohotlar olib borib, ta’lim tizimini takomillashtirish, imlo va grammatik qoidalarga amal qilishni targ‘ib qilish, o‘zbek tili bo‘yicha lug‘atlar va qo‘llanmalarni yangilash va rasmiy hujjatlar va ish yuritishda adabiy me’yorlarga rioya qilsak, albatta, o‘zbek tilidagi xatolarni kamaytirib uning nufuzini oshirishga hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, globallashuv davrida dunyo tillari o‘zaro ta’sirga kirishmoqda. O‘zbek tili ham boshqa tillar bilan lingvistik almashuv jarayonida rivojlanmoqda va boyib bormoqda. Shu bilan birga milliy tilni asrab-avaylash va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, o‘zbek tilga befarq bo‘lmaylik! Uni sevaylik, rivojlantiraylik va dunyo miqyosida munosib o‘rin egallashiga hissa qo‘shaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маманова, д. (2024). Значение и методические концепции преподавания узбекского языка иностранных студентов. *In library*, 2(2), 529-525.

2. Маманова, д. (2024). Использование современных методов при преподавании медицинских терминов иностранным студентам в медицинских вузах. *In library*, 2(2), 313-315.

3. Abdullayevna, t. S. (2022). Ozbek tili o ‘qitishda o ‘quvchining ona tiliga doir bilim va ko ‘nikmalariga tayanish: tangatarova sohibjamol abdullayevna, farg ‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (12), 202-206.

4. Okmonova, s. (2023). Teaching the uzbek language through different methods. *Бюллетень студентов нового узбекистана*, 1(8), 11-14.

5. Umirova, s., & mamonova, d. (2024). O‘zbek tilidan foydalanishda qilinayotgan xatolar. *Journal of scientific research, modern views and innovations*, 1(2), 292-295.

6. Nasriddinov, a., & mamonova, d. (2024). Eng rivojlangan tillarni tarqalishi va rus tilini o ‘rganish. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g ‘oyalar*, 1(3), 90-92.

AVIATSIYADAGI POTENSIAL RISKLARNI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

Qabulova Sarvinoz Rustam qizi

magistratura talabasi

Toshkent davlat transport universiteti. Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqola yo‘lovchi va ekipaj a‘zolarining xavfsizligini ta‘minlash uchun parvozlar paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni aniqlash va tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratilgan. Aviatsiya transportida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalarning statistik ma‘lumotlari keltirilgan. Tadqiqot muntazam va risklarni baholash vaqtida xodimlarning xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni tahlil qiladi, xavfsizlik standartlari va qoidalariga rioya qilish zarurligini ta‘kidlaydilar.*

Annotation: *This article pays special attention to the identification and analysis of possible risks during flights to ensure the safety of passengers and crew. Statistics of aviation transport accidents are given. The study analyzes advanced experience in ensuring the safety of employees during routine and risk assessment, emphasizing the need to comply with safety standards and regulations.*